

## YIGIRISH KORXONALARI MAHSULOTLARI SIFATINI TAHLIL QILISH

*stajor-tadqiqotchi N.A.Sadikova,  
PhD dotsent U.N.Yusupaliyeva,  
Toshkent to 'qimachilik va yengil sanoat institute*

Maqolada hozirgi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda yigirilgan ipning sifatini nazorat qilish maqsadida paxta tolasining HVI tizimida olingan ko'rsatkichlarini qo'llash va tolalar aralashmasining muqobil tarkibini tanlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

To'qimachilik sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sayotgan bo'lsada, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish bo'yicha hali yechimini kutayotgan ko'plab masala va muammolar mavjud. Jumladan, respublikamizda yetishtirilayotgan paxta tolasining xossalarini tezkorlik bilan aniqlash, undan yigiriladigan ip va keyingi bosqichlarda olinadigan mahsulot sifatini prognoz qilish, shuningdek, tola va ipning kompleks hamda alohida sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda kompyuter texnologiyasidan foydalanish bo'yicha yetarli ilmiy izlanishlar olib borilmagan [1].

Yigiruv korxonalarini uchun mahsulot sifatini tahlil qilish muhim vazifa hisoblanadi. Oxirgi 15-20 yil ichida jahonda to'qimachilik sanoati rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi jarayonida to'qimachilik ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQShdan Janubiy Amerika, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlariga ko'chirildi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot past bo'lgan rivojlanayotgan ko'pchilik mamlakatlarda to'qimachilik sanoati jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'rta daromadli mamlakatlar o'zlarini, shuningdek, yaqin atrofdagi mintaqaviy bozorlarni to'qimachilik mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda, texnik matolardan tashqari, deyarli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilmaydi. Iste'mol tovarlariga bo'lgan talab asosan import hisobiga qondiriladi [2].

Yigiruv korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish uchun turli usullar va yondashuvlar qo'llaniladi. Ulardan biri statistik tahlil bo'lib, ipning mustahkamligi, yigiruv bir xilligi va ip qalinligi kabi turli sifat ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi. Statistik tahlil yordamida mumkin

bo‘lgan nuqsonlar va belgilangan standartlardan chetga chiqishlar aniqlanishi mumkin.

Texnik nazorat va sinovlar – mahsulotlarni talablarga sinovligini qo‘yish uchun texnik nazorat va etkazib berish. Bu usul bilan mahsulot sifatini nazorat qilish va yaxshilashga ega bo‘lish mumkin.

Respublikamizning to‘qimachilik sanoati asosan paxta tolasiga asoslangan bo‘lib, paxta tolasidan turli asortimentdagi ip va tayyor mahsulotlar tayyorlanadi. USDA tasnifi bo‘yicha paxta tolasini rangi va pishib yetilganligi bo‘yicha navi – sinalayotgan namuna paxta tolasining tashqi ko‘rinishi bo‘yicha kompyuter xotirasiga olingan standart ko‘rsatkichlarga taqqoslash orqali aniqlanadi. Standart ko‘rsatkichlari va HVI tizimida olingan ko‘rsatkichlaridan farqi shundaki, Standart bu belgilangan me‘yor, unda xomashyoning normal ko‘rsatkichlari keltirilgan, HVI da esa xomashyoning sifat ko‘rsatkichlari o‘lchanadi va ko‘rsatkichlar standart ko‘rsatkichlari bilan solishtirilib, qaysi sifat kategoriyasiga to‘g‘ri kelishi aniqlanadi va xomashyo sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi [3, 4].

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan “UZTEX” MCHJ va “BAKAN TEX” MCHJ korxonalarida tuzilgan saralanmalar asosida ishlab chiqarilayotgan iplarning sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu korxonalariga qabul qilingan paxta tolalarining eng asosiy inobatga olinadigan ko‘rsatkichlari rang va yigiruvchanlik indeksi ko‘rsatkichlari, ya’ni tolaning SCI yigiruvchanlik indeksi va Rd nur qaytarish koeffitsiyenti qanchalik yuqori bo‘lsa, b+ ko‘rsatkichi esa qanchalik past bo‘lsa bu mahsulotdan olingan ip ham shunchalik sifatli va raqobatbardosh bo‘ladi. I nav uchun nur qaytarish koeffitsiyenti, sarg‘ishlik ko‘rsatkichlari  $Rd \geq 75$ ,  $+b < 10$  ga, L uzunlik  $\geq 1-1/8$  inches (1.13 inches / 28.6 mm), 4 tip va undan yuqori tola uzunligi  $\approx 1,124$  teng, (mic) mikroneyri 3.8 – 4.2, (Str) solishtirma uzush kuchi  $\geq 30$  grams per tex, (Elg) uzulishdagi uzayishi  $\geq 6\%$ , (UI) bir xillik indeksi  $\geq 83\%$  ga to‘g‘ri kelsa ko‘zlangan maqsadga erishish imkonini beradi. Saralanma tolalarining HVI ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Saralanma tolalarining HVI ko‘rsatkichlari

1-jadval

Viloyatlar	Tipi, navi,	Saralan	SCI	Yuqori yarim o‘rtach	Mic	Strength	RD Nur qaytarish	+b	UL Bir	Elong	SFI
------------	-------------	---------	-----	----------------------	-----	----------	------------------	----	--------	-------	-----

				dyum	mm							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	12	13	14
Bakan tex	2-I (oliy)	25	136	1,0 5	27, 09	4,7 1	31,9	79,5	8,2	82, 2	5,1	8, 3
Uztex	4-I (oliy)	42	125	1,0 7	27, 2	4,8	27,57	77,2	10, 18	79, 1	6,9	9, 1

Bundan ko‘rinib turibdiki, bu saralanma asosida yigirilgan ip raqobatbardosh va sifat talabiga javob beradi. Bu yakuniy tayyor mahsulot chet el eksporti uchun va yurtimizda trikotaj kiyim-kechaklarini tikishga tadbiq qilingan.

Yigiruv korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini tahlil qilish ularning muvaffaqiyatli faoliyatining ajralmas qismidir. Sifatni tahlil qilish usullaridan foydalanish, sifatga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olish, shuningdek, jarayonni tizimli takomillashtirish mahsulot sifatining yuqori darajasiga erishishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida, korxonaning raqobatbardoshligini va mijozlarning talabini oshiradi. Sifatga doimiy e’tibor va doimiy takomillashtirish orqali yigiruv korxonalari bozorda muvaffaqiyatga erisha oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jumaniyazov Q.J., G‘ofurov Q.G‘., Yusupaliyeva U.N., Rahmatullinov F. Ipnig pishiqligi bilan tola xossalari orasidagi bog‘liqlik // To‘qimachilik muammolari. №2, 2012 y.
2. У. Н. Юсупалиева, Н. А. Садикова ПАХТА ТОЛАСИНИНГ РАНГ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ИП ХОССАЛАРИГА ТАЪСИРИ ТАДҚИҚОТИ Academic Research in Educational Sciences. September, 2022 [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz) Multidisciplinary Scientific Journal
3. Yusupaliyeva U.N., Yuldashev N.N. Color quality control in the production of cotton fiber. European chemical bulletin 2022,11(4).
4. Yusubaliev A., Yusupaliyeva U. Improvement of quality of a cotton fibre Sorting cotton segments in the electric device // European science review.-Austria, Vienna. №3, 2014 g.